



# «ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

Buyuk shoir va mutafakkir tavalludining  
580 yilligiga bag'ishlangan xalqaro  
ilmiy-nazariy anjuman  
materiallari

2021-yil, 8-9-fevral

## «ALISHER NAVOI AND THE XXI CENTURY»

The Materials of the International  
Scientific-Theoretical Conference on the Theme  
2021 year 8-9 February

## ALISHER NAVOIY "XAMSA"SIDA PROSODIK URG'U

### PROSODIC FOCUS IN ALISHER NAVOI "KHAMSA"

*Dilnavoz YUSUPOVA*

*ToshDO'TAU*

*(O'zbekiston)*

#### *Annotatsiya*

*Maqolada aruz tizimi urg'uga asoslangan she'riy tizim sifatida taqdim qilinib, prosodik urg'u va leksik urg'uning farqli jihatlariga diqqat qaratiladi. Muallif Alisher Navoiy "Xamsa"da prosodik urg'uning o'rnini tadqiq qilish asnosida ushbu urg'u matn bilan munosabatga kiritishni ta'kidlaydi hamda urg'u va poetik mazmun o'zaro munosabatlarda degan xulosaga keladi.*

***Kalit so'zlar:** aruz, leksik urg'u, prosodik urg'u, she'riy sistema, kvantitativlik, kvalitatvlik*

#### *Annotation*

*In the article, the aruz system is presented as a poetic system based on stress. Attention is paid to various aspects of prosodic and lexical stress. The author, examining the place of the prosodic accent in Alisher Navoi's Khamsa, emphasizes that this stress is associated with the text, and comes to the conclusion that the prosodic stress and poetic content are in harmony.*

***Key words:** prosody, lexical stress, prosodic stress, poetic system, quantitative, qualitative.*

#### **Kirish**

Jahon she'rsunosligida adabiyotning poetik unsurlarini tarixiylik, qiyosiylik, o'zaro ta'sir va aks ta'sir, ob'ektivlik, sinkretizm tamoyillari asosida o'rganish rivojlanayotgan bo'lib, she'rsunoslik ilmini uzviylikda taraqqiy etgan tarixiy jarayon sifatida baholash dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Shu ma'noda, she'rsunoslikning tarkibiy qismi bo'lgan aruzshunoslikning xarakterli jihatlarini

aniqlash, aruz tizimining kvantitativ va kvalitatif xususiyatlarini asoslash, aruzning ritmik unsurlarini o'zaro qiyosiy jihatdan o'rganish kabi masalalar jahon aruz ilmining o'rganilishi zarur bo'lgan muhim mavzulariga aylanmoqda.

Aruz vazni urg'uga asoslangan she'riy tizim bo'lib, aruziy matnda rukn urg'usi etakchilik qiladi. Eng avvalo, rukn (prosodik) urg'usini so'z (leksik) urg'usidan farqlash zarur. Ma'lumki, gap qurilishida har bir mustaqil so'z urg'u oladi va bu *leksik urg'u* deb yuritiladi. Aruziy matnda esa misra birligi sifatida so'z emas, rukn qabul qilinganligi uchun unda so'z urg'usi o'z hukmronligini yo'qotib, rukn urg'usi etakchi o'ringa chiqadi, so'z urg'usi matndan tashqaridagina hukmronlik qiladi. Shunga ko'ra, baytda nechta rukn bo'lsa, shuncha urg'u mavjud bo'ladi. Aruzdagi urg'u faqat cho'ziq hijo bilan bog'liq va qisqa hijo hych qachon urg'u olmaydi. Arab aruzi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan olim E.Talabovning ishlarida aruz tizimida urg'uning o'rni bilan bog'liq masalalar tadqiq qilingan [Talabov, 1977; 2004]. Olimning fikricha, aruziy matnda urg'u ritmni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. "Arabiy aruzda bo'g'inlarning miqdor munosabatlari bilan birga, urg'ularning, yana ham to'g'rirog'i, urg'uli bo'g'inlarning simmetriyasi mavjud va u ritm yaratishda belgilovchidir" [Talabov, 2004: 25]. Aynan shu xulosani aruzdan foydalanuvchi boshqa xalqlar, xususan fors-tojik va turkiy adabiyot vakillari she'riyati haqida ham bildirish mumkin.

"Aruziy matnda so'z urg'usi (leksik urg'u) bilan ritm urg'usi (prosodik urg'u) mutobiq emas – ularda o'zaro moslik yo'q. Ahyonda uchrab turadigan mutobiqlik sof tasodifdir. Bayt tarkibidagi so'z ruknlar tasarrufida o'z shakl va urg'u mustaqilligini batamom yo'qotadi, u misradagi qolip va uning prosodik urg'usi maromiga bo'ysundiriladi – mahv etiladi" [Talabov, 2004: 27].

#### **"Xamsa" dostonlarida urg'uning o'rni**

"Xamsa" dostonlari, barchamizga ma'lumki, 5 ta she'riy o'ltov doirasida yoziladi. Bu vaznlarda urg'uning o'rniga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, quyidagi manzara hosil bo'ladi:

№	Vaznlar nomi, taqti'i va ularda urg'uning joylashish o'rni		
1.	Sari'i musaddasi matviyi makshuf		
	Muftailun - V V -	muftailun - V V -	fo'dun - V -
2.	Hazaji musaddasi mahzuf		
	Mafoiy'lun V - - -	mafoiy'lun V - - -	fauvlun V - - -
3.	Hazaji musaddasi axrab		
	MaF'ulu - - V	mafo'ilun V - V -	fauvlun V - -
4.	Xafifi musaddasi maxbun		
	Fo'ilotun - V - -	mafo'ilun V - V -	failun V V -
5.	Mutaqoribi musammami mahzuf		
	Fauvlun V - -	fauvlun V - -	fauvlun V - -
			faal V -

Aruziy matnda urg'uning o'rni nihoyatda muhim. Navoiy dostonlari, va umuman, aruzda yaratilgan badiiy asarlardagi urg'uga e'tibor qaratmaslik aruzga xos ritmik ohangni his etmaslikka olib keladi.

Aslida besh xil she'riy o'lchovda yaratilgan "Xamsa" dostonlari ritmini bir-biridan farqlash uchun ham ulardagi urg'ular o'rniga diqqatni qaratish kerak bo'ladi. Biz Alisher Navoiy "Xamsa" sining har bir dostonida mavjud bo'lgan "Munajat"lardagi urg'uni tahlil qilish orqali dostonlarning ritm xususiyatlariga diqqatni qaratmoqchimiz<sup>1</sup>.

Dastlab "Hayrat ul-abror" dostonidagi "Munajat" dan olingan parchani ko'rib chiqsak:

<sup>1</sup> Biz bu o'rinda dostonlarning umumiy ritmi haqida tasavvur bosil qilinishi va barcha dostonlarda mavjud bo'lganligi uchun aynan "Munajat" larni tanladik.

Éy sanga mab | dá'da abad | dék azal  
 -VV- | -VV- | -V-  
 Zóti qadi | ming abadiy | lám'azal.  
 -VV- | -VV- | -V-

Né bo'lub av | válda bido | yát sanga,  
 -VV- | -VV- | -V-  
 Né kelib o | xirda niho | yát sanga.  
 -VV- | -VV- | -V-

Áyval o'zung, | óxiru mo | báyn o'zung,  
 -VV- | -VV- | -V-  
 Bórchag'a xo | líq, borig'a | áyn o'zung...  
 -VV- | -VV- | -V-

Ko'riyaptiki, ushbu she'riy o'lchovda urg'u har bir rukning birinchi cho'ziq bo'g'iniga tushyapti. Urg'uning ruknlardagi bunday tanosubi va qisqa bo'g'inlarning ketma-ket qo'llanilishi engil va o'ynoqi ritmning vujudga kelishini ta'minlayapti.

Endi ishqiy-tasavvufiy mavzudagi doston bo'lmish "Layli va Majnun" dagi urg'ular o'rniga nazar tashlasak:

Pokó si | fatingda ah | li idrók,  
 -V | V-V- | V--  
 So'z sírma | di g'áyrí "mo | arafnók".  
 -V | V-V- | V--

Har náv' | ki dylasam | xtobíng,  
 -V | V-V- | V--  
 Yuz óncha | btyíkdurur | javobíng,  
 -V | V-V- | V--  
 Ulkím, "a | na áfsah" et | ti da'vó,  
 -V | V-V- | V--  
 Fosh étti | bu dáv'i ich | ra ma'nó.  
 -V | V-V- | V--

Ushbu taqti'da yana boshqacharoq holatning guvohi bo'lyapmiz: urg'u har bir ruknda turlicha o'rin olgan. Xususan, birinchi ruknda

ikkinchi cho'ziq bo'g'in, ikkinchi ruknda birinchi cho'ziq bo'g'in va uchinchi ruknda so'nggi bo'g'in urg'uli ekanligini ko'rish mumkin. Misralarning ikkita cho'ziq bo'g'in bilan boshlanishi va bunda ikkinchi cho'ziq bo'g'inning urg'u olishi hazin va dardli ohangni vujudga keltiryapti va bu holat Navoiy tomonidan "Firoqnoma" deb atalgan doston mohiyatiga mos kelyapti.

"Xamsa"ning so'nggi dostoni bo'lmish "Saddi Iskandariy"dan olingan parchani ko'rib chiqsak:

*Lakal-hám | d, yo ák | ramal-ák | ramín,*  
*V--' | V--' | V--' | V--'*  
*Karam áh | lín etgán | gadoyí | kamín.*  
*V--' | V--' | V--' | V--'*

*Karím o'l | sa olám | da har náv | 'shóh,*  
*V--' | V--' | V--' | V--'*  
*Anga sén | karam qíl | dínq, ul dás | tgóh.*  
*V--' | V--' | V--' | V--'*

*Karamdín | kishi qáy | da sochqáy | dirám,*  
*V--' | V--' | V--' | V--'*  
*Dirám sén | anga qíl | mog'unchá | karám.*  
*V--' | V--' | V--' | V--'*

Agar e'tibor qaratilsa, mazkur she'riy o'lchovda ruknlarning 3 bo'g'indan tarkib topganligi, bandlarning ham yuqorida keltirilgan parchalardan farqli ravishda musaddas emas, balki musamman ruknlardan iborat ekanligi va shunga mos holda urg'ular soni ham 8 ta ekanligini ko'rish mumkin. Bu holat jangnomalarga xos shiddatli ritmni keltirib chiqaryaptiki, biz bu haqda yuqorida ham fikr yuritib o'tgan edik.

Biz keltirgan jadval xamsachilikdagi vaznlarda urg'uning o'rnini umumiy holatda belgilaydi. Lekin asar matni bilan bog'liq holatlarda, xususan, ritmik variatsiyalarga ega bo'lgan vaznlar haqida so'z yuritilganda, tabiiyki, urg'u o'rnini o'zgarishi mumkin. Ritmik variatsiyalar asar matni bilan munosabatga kirishadi va shunday hollarda urg'uning o'rnini ham o'zgaradi va ritmning yangi-yangi ko'rinishlari vujudga keladi. Ushbu qonuniyatdan kelib chiqqan

holda ritmik variatsiyaga ega bo'lgan vaznlar uchun urg'u o'rmini har bir variatsiya bilan bog'liq holatda ko'rib chiqishni lozim topdik.

### Ritmik variatsiyalar va urg'u

Dastlab xafifi maxbun vazniga xos ritmik variatsiyalardagi urg'ular o'rmini ko'rib chiqamiz:

№	Ritmik variatsiya nomi	Ruknlari va taqti'i		
1.	Xafifi musaddasi solima maxbuni mahzuf	Foilotun - V - -	mafouhun V - V -	failun V V -
2.	Xafifi musaddasi solima maxbuni maqtu'	Foilotun - V - -	mafouhun V - V -	fa'lun - -
3.	Xafifi musaddasi solima maxbuni maqsur	Foilotun - V - -	mafouhun V - V -	failon V V -
4.	Xafifi musaddasi solima maxbuni maqtu'i musabbaq'	Foilotun - V - -	mafouhun V - V -	fa'lon - -
5.	Xafifi musaddasi maxbuni mahzuf	Foilotun V V - -	mafouhun V - V -	failun V V -
6.	Xafifi musaddasi maxbuni maqtu'	Foilotun V V - -	mafouhun V - V -	fa'lun - -
7.	Xafifi musaddasi maxbuni maqsur	Foilotun V V - -	mafouhun V - V -	failon V V -
8.	Xafifi musaddasi maxbuni maqtu'i musabbaq'	Foilotun V V - -	mafouhun V - V -	fa'lon - -

Ma'lumki, ushbu she'riy o'lchovda Navoiyning "Sab' ai sayyor" dostoni yaratilgan. Dostondan olingan ayrim baytlarga e'tibor qaratsak:

*Ikki qattiq hadis eshitdi ajab  
Ixtiyorin ilikdin oldi g'azab.*

Ushbu baytda Bahromning ov paytida Diloromdan kiyikni otgani uchun maqtov emas, balki "mashq natijasi" degan bahoni eshitgan vaqtidagi holati tasvirlangan. Baytning har ikkala misrasi yuqorida keltirilgan jadvaldagi birinchi taqti'ga mos keladi, ya'ni:

*Ik-ki qat-tiq | ha-dis e-shit | di a-jab  
- V - -            V - V -            V V -*  
*Ix-ti-yo-rin | i-lik-din ol | di g'a-zab.  
- V - -            V - V -            V V -*

E'tibor qaratisa, baytlarning so'nggi rukni ikki qisqa, bir cho'ziq bo'g'indan iborat bo'lib, so'nggi rukn urg'usi misraning oxirgi bo'g'iniga tushyapti.

Keyingi baytlardan Bahromning g'azabi yanada ortib boradi va vazn jadvaldagi ikkinchi taqti' bilan almashadi:

*Shóh-kím qah | ri o'l-sa mus | táv-lí*  
 - V -- | V - V - | --

*Úl dí-yor ich | ra bo'l-ma-moq | áv-lí.*  
 - V -- | V - V - | --

*Sál-ta-nat g'ay | ra-tí chu zo'r | ét-tí*  
 - V -- | V - V - | --

*Lút-fu eh-son | ko'-zî-ni ko'r | ét-tí.*  
 - V -- | V - V - | --

*Ís-ta-dí qat | l áy-la-mak | ó-ní*  
 - V -- | V - V - | --

*Kés-mak o-zó | d sár-ví ra' | nó-ní.*  
 - V -- | V - V - | --

Agar e'tibor qaratisa, yuqoridagi uch baytda oxirgi rukn ikki cho'ziq bo'g'in -fa'lundan iborat va urg'uning o'ri ham o'zgargan - urg'u misraning so'nggi bo'g'iniga emas, balki oxiridan bitta oldingi bo'g'inga tushyapti. Qiyoslang:

*Ikki qattiq hadis eshí | ú ajáb.*  
 V V -

*Ixtiyorin ilikdin ol | dí g'azáb.*  
 V V -

*Istadi qatl aylamak | ónt.*  
 | --



*Kesmak ozod sarvi ra' | nóni.*  
—

Baytlar shu tariqa yuqoridagi ikki vazning o'zaro almashinib takrorlanishi asosida davom etadi. Nihoyat Bahrom tongga yaqin g'azab va may ta'siridan xoli bo'lgach, yonida Diloromi yo'qligini ko'rdi va shoshilinch tarzda uni izlamoqchi bo'ldi. Agar yori tirik bo'lsa, uning fidosi bo'lmoqni, agar o'lgan bo'lsa, o'ziga tig' urmoqni istadi. Bu tasvir dostonida quyidagi baytlar vositasida berilgan:

*"... Tirik o'lsa, bo'lay fidosi aning,  
Beribon jon topay rizosi aning.*

*O'lgan o'lsa, o'zinga tig' urayin,  
Diyatig'a o'zumni o'lturayin".*

Mazkur baytlar tahlil qilinsa, jadvaldagi 5-taqtig'a mos ekanligini ko'rish mumkin, ya'ni birinchi va uchinchi ruknlar qisqa bo'g'in (*faiilotun* va *faiun*) bilan boshlanaypti. Birinchi baytni ko'rib chiqamiz:

*Ti-rik o'l-sa | bo'-lgy fi-do | si a-ning.*  
*VV — | V-V- | VV-*  
*Be-ri-bon jon | to-pdy ri-zo | si a-ning.*  
*VV— | V-V- | VV-*

Toj-u taxt nomusi Bahromning bu niyatini amalga oshirishga yo'l qo'ymagach, joni ikki balo o'rtasida, o'zi esa ikki ajdarho orasida qolgan chumoliga o'xshab qoldiki, uni ko'rgan odam tirik yoki o'likligini ajrata olmas edi. Mazkur tasvir bayonida vazn yana o'zgarib, jadvaldagi ikkinchi taqtig'a mos she'riy o'lchovga qaytiladi:

*Qo'ymadi to | ju taxt no | musi,*  
*-V— | V-V- | —'*  
*Aylamakka | o'luk zamin | bo'si.*  
*-V— | V-V- | —'*

*Joni ikki | balo aro | sinda,*  
*-V— | V-V- | —'*

*Mo'r iki aj | dahro aro | sinda.*

*- V - - | V - V - | - -*

*Ne o'luk er | di, ne tirik | soni,*

*- V - - | V - V - | - -*

*Bo'lmas erdi | tirik demak | oni.*

*- V - - | V - V - | - -*

Ko'rinyaptiki, Bahrom ruhiyatidagi ahvolning o'zgarishi ritmga ham ta'sir qilmay qolmayapti, xususan, Bahromning g'azabga mingan holati bayonida cho'ziq bo'g'inlar bilan boshlanuvchi *follotun* va *fa'lun* ruknlari, harakat tezlashgan va nisbatan engilroq holatlar tasvirida ikki qisqa bo'g'in bilan boshlanuvchi *failotun* va *failun* ruknlaridan foydalanilmoqda va bunda urg'ular o'rni ham muayyan o'zgarish vujudga kelmoqdaki, bu holat vazn, urg'u va mazmun o'zaro munosabatda degan fikrni yana bir bor isbotlaydi.

Endi hazaji axrab vaznidagi urg'ular o'rini ko'rib chiqamiz:

Ni	Ritmik variatsiya nomi	Ruknlari va taqti'i
1.	Hazaji musoddasi axrabi maqbuzi mahzuf	Ma'ulu mafoilun fauvlun - - V V - V - V - -
2.	Hazaji musoddasi axrabi ashtari mahzuf	Ma'ulum foilun fauvlun - - - - V - V - -

Laylining Majnun bilan bog'dagi birinchi suhbatidan olingan bayt taqti'i va urg'ular o'rini ko'rib chiqsak:

*K-ey tuf'a | yig'it ne ho | lating bor;*

*- - V V - V - V - -*

*Ne nav' | g'amu malo | lating bor?*

*- - V V - V - V - -*

Endi Laylining Majnun ota-onasi o'limini eshitgandan keyingi so'zlari ifodalangan bayt taqti'i va urg'ular o'rniga diqqat qaratamiz:

*Kim: Ey kaj | rav sipeh | ri xudroy;*

*- - - - V - V - -*

*Zulmungdin | voyu yuz | tuman voy.*

*- - - - V - V - -*

Ko'rinyaptiki, ikkinchi baytning mazmuri avvalgisidan ko'ra ancha iztirobliroq va bunda cho'ziq bo'g'inlar sonining ko'pligini (qisqa bo'g'inlar bir misrada ikkita, xolos) kuzatish mumkin, shuningdek, birinchi bayt bilan ikkinchi baytda urg'ular o'rmi ham o'zgargan. Bu holat jadvalda ifodalangan ikkinchi ritmik variatsiyaning, asosan, mahzun tuyg'ular ifodasi uchun qulay ekanligini ko'rsatadi.

"Layli va Majnun" dostonining bosh qahramonlar o'limi tasviri berilgan 35-bobida ham hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuz ritmik variatsiyasining ko'p qo'llanilganligini ko'ramiz. Mazkur bob dostonning eng ta'sirli boblaridan biri bo'lib, mahzun tuyg'ular ifodasi ritm bilan hamohanglik kash etgan. Laylining o'limi bayoni berilgan baytlarni kuzatsak:

*Ya 'ni "chiñ | ishq ayir | sa jondin,*  
 --- -V- V--  
*Chiqqungdur | sirxro" | jahondin" ...*  
 --- -V- V--

*Jonin Maj | min so'zi | da berdi,*  
 --- -V- V--  
*Hargiz Lay | li degil | yo'q erdi...*  
 --- -V- V--

*Tirnog'la | rin chu yuz | ga qo'ydi,*  
 --- -V- V--  
*Tirnog', tir | nog'cha er'lar o'ydi.*  
 --- -V- V--

Ma'lum bo'lyaptiki, Navoiy iztirobli tuyg'ular bayonida uchta cho'ziq bo'g'in bilan boshlanuvchi ritmik variatsiyaga murojaat qilyapti, misralarda urg'uli bo'g'inlarning yonma-yon qo'llanishi esa hazin ritmning vujudga kelishini ta'minlayapti va bularning barchasi ritmik variatsiya, urg'u va mazmun o'zaro bir-birini taqozo etuvchi poetik unsurlar ekanligini ko'rsatyapti.

### **Qo'shimcha prosodik urg'u**

Tilshunoslarning ko'rsatishicha, 3 va undan ortiq bo'g'inli so'zlarda ko'pincha asosiy urg'u bilan birga qo'shimcha urg'u ham mavjud bo'ladi va bunday urg'u, asosan, cho'ziq unli bilan tugagan ochiq bo'g'inga tushadi. "Yordamchi urg'u olgan bo'g'inni talaffuz qilishda nafas kuchi (havoning kuchi) asosiy (bosh) urg'u olgan bo'g'indan kam bo'ladi, biroq u urg'usiz bo'g'inlarga qaraganda ortiqroqdir" [Shoabdurahmonov, 1980: 69-70]. Yuqorida aytganimizdek, aruz ruknlarga asoslangan sistema bo'lganligi uchun bunday urg'uni belgilashda so'z tarkibidagi bo'g'inlarga emas, balki ruknni tashkil qilgan cho'ziq ochiq bo'g'inlarga e'tibor qaratiladi.

Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, turkiy aruzda qo'llanilgan bahrlar orasida har bir rukni tarkibida 3 tagacha cho'ziq bo'g'in mavjud bo'lgan ramal, hazaj va rajazda yozilgan matnlarda ko'pincha asosiy urg'udan tashqari qo'shimcha urg'u ham mavjud bo'ladi va bunday urg'u cho'ziq ochiq bo'g'inga tushadi hamda asar ritmini hosil qilishda muhim rol o'ynaydi.

Qo'shimcha ritmik urg'uning aruziy matndagi o'rni haqida shunday deyish mumkin:

a) qo'shimcha urg'u, asosan, cho'ziq unlili ochiq bo'g'inga tushadi;

b) ritm yaratishda ochiq cho'ziq bo'g'in yopiq cho'ziq bo'g'indan ko'ra ko'proq ahamiyatga ega;

v) bir vaznga oid she'rlar qo'shimcha urg'u hisobiga turlicha ritm kasb etishi mumkin va bu holat bir vaznda bir necha xil mazmundagi asarlarni yaratish imkoniyatini olib keladi (bu fikr faqat qo'shimcha urg'u olish imkoniyatiga ega bo'lgan vaznlargagina tegishli).

"Xamsa" vaznlari orasida qo'shimcha urg'ular olish imkoniyatiga ega bo'lgan vazn hazaji musaddasi mahzuf bo'lib, ushbu vazn qo'llanilish jihatdan epik poeziyada etakchi o'rinni egallaydi. XIX asrgacha bo'lgan epik poeziyada mazkur vazn, asosan, ishqiy mavzudagi dostonlarda istifoda etildi. Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si va umuman barcha nomalar, Sayfi Saroyining "Suhayl va Guldursun", Qutbning "Xisrav va Shirin", Haydar Xorazmiyning "Gul va Navro'z", Sayyid Qosimiyning "Ilohiynoma" va "Haqiqatnoma" hamda Alisher Navoiy "Farhod va Shirin"

dostonlarining mazkur vaznda bitilganligi fikrimizni isbotlaydi.

XIX asrdan boshlab ushbu vaznda turli mavzudagi dostonlarni yaratish tamoyili vujudga kela boshladi. Xususan, diniy-didaktik adabiyot vakili bo'lgan Xolis Toshkandiy qalamiga mansub 20 ga yaqin turli mavzudagi dostonlar, kattaqo'rg'onlik Ochildimurod Miriy dostonlari, Nodir Uzlatning Mohlaroyim Nodiraga bag'ishlangan "Haft gulshan" dostoni hazaji musaddasi mahzuf vaznida yaratilgan edi.

Xo'sh, nega ushbu vazn epik poeziyada bu qadar keng qo'llanildi? Bu savolga quyidagicha javob berish mumkin: ushbu vaznning keng qo'llanilishiga sabab uning xalqona ohangga ega bo'lishi bilan birga vazn tarkibidagi ruknlarning qo'shimcha urg'ular olish imkoniyatiga ega ekanligi hamdir.

Yuqorida aytganimizdek, mazkur vaznda Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni yaratilgan. Bu vazn doston oxirigacha bir xil tarzda takrorlanib boradi va tabiiyki, umumiy ritmni vujudga keltiradi. Lekin ta'kidlanganidek, hazaji mahzuf vazni tarkibidagi ruknlar qo'shimcha urg'ular olish imkoniyatiga ega ekanligi va bunday urg'u asosan cho'ziq unli bilan tugagan ochiq bo'g'inga tushishini nazarda tutsak, dostonidagi ritmik ohang ana shu holat hisobiga bir oz o'zgarishi ham mumkin. Boshqacha aytganda, ijodkor cho'ziq bo'g'inlarni qo'llash paytida (qisqa bo'g'in urg'u olmaydi, shu sababli bu o'rinda faqat cho'ziq bo'g'inga tayaniladi) cho'ziq o, u, e, i unilari bilan tugagan ochiq bo'g'inlardan ko'proq foydalansa, bundagi ritmik ohang aynan shunday bo'g'inlar kamroq ishtirok etgan va yopiq cho'ziq bo'g'inlar etakchilik qilgan matn ohangidan farq qiladi. "Farhod va Shirin" dostonidan olingan 4 parchani qiyoslash uchun keltiramiz. Dastlabki parchada Navoiyning "Farhod va Shirin" voqyeasini yozishga kirishishdan avvalgi holati berilgan:

*Manga chun to|lej farxun|da kavkab<sup>1</sup> 1*

*Bu asy uzra |bisot etti | murattab. 0*

*Malak avval| pari birla| supurdi. 0*

*Falak anjum| sirishkidin| suv urdi. 1*

<sup>1</sup> Qo'shimcha urg'uli bo'g'inlar tagiga chizilgan holda ko'rsatildi.

<i>Bo'lub saqf o'r'nig'a ayji  muqarnas</i>	0
<i>Bisqti uz ra yoydi char xi atlas.</i>	1
<i>Solib mijmar g'a tun udi  qamqriy.</i>	1
<i>O'ti xurshed  o'lub, anjum  shargri.</i>	1
<i>Bu nuzhatgah  mening qro mgohim.</i>	2
<i>Sipehr aylab  jabini xo krqhim.</i>	1

Jami: 8 ta

Shirinning Farhodga yozgan maktubidin parcha:

<i>Meni zgru  zaifu po shikasta</i>	2
<i>Boshimdin to  ayoq a'zo  shikasta.</i>	0
<i>Firqing ti g'ldin yuz po ra jgnim,</i>	2
<i>Ne jonim, bal ki jismi  no tavonim.</i>	3
<i>Kuyub hajr o'tidin jqu  ko'ngul ham,</i>	1
<i>Ne kuyumakim  bo'lub yuz qat la kul ham</i>	0
<i>Ichimga shu  laj ishqing  tutqshib,</i>	2
<i>Tutqshib de makim hqchim din qshib</i>	3
<i>Ichimda bo'l sa yuz o't o shkqro,</i>	1
<i>Nafas dudin  urarg'a qay da yqro.</i>	1

Jami: 15 ta

Farhodning Shiringa yozgan maktubidan parcha:

<i>Sanga jonn  fidq qilmoq  havqsi,</i>	2
<i>Ne haddimkim  bo'lay ul it  fidqsi?</i>	1
<i>Senin hqling  so'rarg'a qay da yqro,</i>	2
<i>Bas qning ho lin etsam o shkqro.</i>	2

<i>Bukim maktub  arg durlar  qilib darj,</i>	1
<i>Latqiyif naq di ko'p aylab  eding xarj.</i>	1
<i>Aning uzri da qjzdir  bayonim,</i>	2
<i>Ki har harfi g'a bo'lsun sad qa jgnim.</i>	1
<i>Deb erding men da ham ko'ptur  g'amg dard,</i>	1
<i>Bu so'z din kayd  jgn  dard parvard...</i>	1
Jami: 14 ta	

Navoiyning dostonni tugatgandan keyingi holati:

<i>Chu qolmay do ston din nuq ta bqqiy,</i>	1
<i>Tutub sqg'ar  to'la ber tur fa sqqiy.</i>	2
<i>Labqlab chun  etib ul jo m payvast,</i>	1
<i>Damodam so'z  demakda ul  bo'lub mast.</i>	1
<i>Vale bu do ston qilg'un cha mastur,</i>	0
<i>Ko'p aytib so'z  bag'oyat bo'l di maxmur.</i>	1
<i>Ketur, sqqiy.  anga bir do's tgqniy,</i>	2
<i>Ki tutqay do's tlarga do's t qni.</i>	1
<i>Manga tutqil ki, so'zni ko' tah ettim,</i>	0
<i>Tinay bir lah za chun manzil g'a ettim.</i>	0

Jami: 9 ta.

Yuqoridagi parchalardan ko'rinyaptiki, dostonning kirish va xulosa qismida cho'ziq unli bilan tugallanuvchi ochiq bo'g'inlar soni deyarli teng (8 va 9), boshqacha aytganda, qo'shimcha urg'u olgan bo'g'inlar soni orasida katta tafovut yo'q. Farhod va Shirinning maktublarida ham qo'shimcha bo'g'inlar sonida o'zaro o'xshashlik borligini ko'rish mumkin. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin:

Dostonning kirish qismida tinch, sokin holatda asarning yozilishi bilan bog'liq fikrlar bayon qilinyapti va bunda qo'shimcha urg'u olgan bo'g'inlar ham u qadar ko'p emas, ya'ni 8 ta. Shirinning Farhodga yozgan maktubi yoki Farhodning Shiringa yozgan maktubi

mazmuniga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, ularda asosan iztirobli tuyg'ular bayonining etakchilik qilganligini ko'rishimiz mumkin. Endi qo'shimcha urg'ular soniga diqqat qaratsak, ularning avvalgi parchadagidan ko'ra ikki baravar ko'pligini ko'rish mumkin. Va nihoyat, dostonning yakunlovchi so'nggi 5 baytiga e'tibor qaratsa, unda yana qo'shimcha bo'g'inlar sonining kamaygani ko'zga tashlanadi. Demak, aytish mumkinki, dostondagi iztirobli va hishayajonli holatlar bayonida qo'shimcha urg'ular sonining tinch, sokin holatlar tasviri bayonidan ko'ra 2 baravar ko'proq bo'lishi kuzatilar ekan va bularning barchasi aruziy matnda ritmik urg'u badiiy asar mazmuni bilan o'zaro mutanosiblikda degan xulosaga olib keladi.

### **Xulosa**

“Xamsa” dostonlaridagi ritmik urg'uni tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Aruz urg'uga asoslangan she'riy tizim bo'lib, aruziy matnda so'z urg'usi emas, balki rukn urg'usi etakchilik qiladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, baytda nechta rukn bo'lsa, shuncha urg'u ham bo'ladi va bunday urg'u ritm yaratishga xizmat qilganligi uchun ritmik urg'u deb yuritiladi. Ritmik urg'u faqat cho'ziq bo'g'inga tushadi va qisqa bo'g'in har doim urg'usiz bo'g'in hisoblanadi.

2. Ritmik variatsiyalar va urg'u bir-birini taqozo etuvchi ritmik unsurlar bo'lib, ritmik variatsiyalar dostonlar matni bilan munosabatga kirishganda urg'ularning o'rni ham o'zgaradi va ritmning turli-tuman toylanishlari vujudga keladi. Xususan, “Sab'ai sayyor” dostonida ritmik variatsiyalarning Bahrom ruhiyatiga mos holda o'zgarishi urg'ular o'rniga ham muayyan ta'sirini ko'rsatgan bo'lsa, “Layli va Majnun” dostonida Laylining o'limi bayoni berilgan baytlarda urg'uli bo'g'inlarning yonma-yon kelishi, hatto bir so'zning ikki ruknga bo'linishi oqibatida ikkita urg'uga ham ega bo'lishi va buning natijasida hazin ritmning vujudga kelishi bilan bog'liq hodisani kuzatamiz. Bularning barchasi ritmik variatsiya, urg'u va mazmun o'zaro uyg'unlikda degan xulosaga olib keladi.

3. Navoiy “Xamsa”si dostonlari orasida “Saddi Iskandariy” eng ko'p ritmik urg'uga ega bo'lgan doston bo'lib, bu holat dostonidagi she'riy o'lchov – mutaqorib bahrining 8 ta rukndan iboratligi



bilan bog'liqdir. Bunda ruknlar soni va prosodik urg'uning boshqa dostonlarga qaraganda ko'pligi jangnomalarga xos shiddatli ohangning vujudga kelishini ta'minlaydi.

4. Tarkibida uchtagacha cho'ziq bo'g'in mavjud bo'lgan ruknlarda asosiy urg'udan tashqari, qo'shimcha urg'u ham mavjud bo'ladi va bu holat bir xil vaznda yaratilgan she'riy asarlarning turlicha ritm kasb etishiga olib keladi. Turkiy poeziyada bunday ruknlardan tarkib topgan bahrlar ramal, hazaj va rajaz bo'lib, ushbu bahrlarning mumtoz she'riyatimizda keng istifoda etilganligining sabablaridan biri ham shunda. Epik poeziyada, xususan, Alisher Navoiy "Xamsa"sida qo'llanilgan she'riy o'lchovlar orasida esa hazaji musaddasi mahzuf ( $V - - - V - - - V - -$ ) vazni ana shunday vaznlardan bo'lib, Navoiygacha ham, Navoiydan keyingi epik poeziyada ham mazkur vaznning qo'llanilish darajasi jihatdan birinchi o'rinda turganligini ko'ramiz. Alisher Navoiy mazkur vaznning bunday imkoniyatidan samarali foydalanib, qo'shimcha ritmik urg'uning doston mazmunini ochishga xizmat qilishini ta'minlagan. Xususan, dostondagi Farhod va Shirinning maktublari keltirilgan iztirobli va his-hayajonli holatlar bayonida qo'shimcha urg'ular sonining dostondagi kirish yoki xulosalovechi qismlar bilan bog'liq fikrlar aks etgan tinch, sokin holatlar tasviri bayonidan ko'ra ikki baravar ko'proq ekanligi kuzatiladi va bu holat ritmik urg'uning doston mazmuni bilan o'zaro mushtaraklik hosil qilganligini ko'rsatadi. Bularning barchasi aruz vazni kvantitativ she'r tizimi bo'lish bilan birga kvalitatiflik xususiyatlariga ham ega ekanligini isbotlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. Xayrat ul-abror. MAT. 20 tomlik. – Toshkent: Fan, 1991. T. 7.
2. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. MAT. 20 tomlik. – Toshkent: Fan, 1991. T. 8.
3. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. MAT. 20 tomlik. – Toshkent: Fan, 1992. T. 9.
4. Alisher Navoiy. Sab'ian sayёр. MAT. 20 tomlik. – Toshkent: Fan, 1992. T. 10.

5. Алишер Навоий. Сади Исқандарий. МАТ. 20 томлик. – Тошкент: Фан, 1993. Т. 11.
6. Талабов А. Араб арузи. – Тошкент: ТошДУ, 1977.
7. Талабов Э. Араб шеърятда аруз тизими. Филол. фан. док. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2004.
8. Тўйчиева Г. Ислом даври шеърятда аруз тизими ва унинг эволюцион тараккиёти. Филол. фан. бўйича доктор. (Dsc) дисс. ... – Тошкент, 2018.
9. Шабдурахмонов Ш. Аскарва М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
10. Юсупова Д. Алишер Навоий “Ҳамса”сида мазмун ва ритмнинг бадний уйғунлиги. – Тошкент: Mumtoz soʻz, 2011.

<b>Karomat MULLAXO‘JAYEVA.</b> Irfoniy ma‘noning badiiy talqinida tabiat tasvirining o‘rni.....	204
<b>Qodirjon ERGASHEV.</b> “Tarixi muluki ajam”ning uslubiy xususiyatlari.....	213
<b>Dilnavoz YUSUPOVA.</b> Alisher Navoiy “Xamsa”sida prosodik urg‘u.....	222
<b>Bobonazar MURTAZOYEV.</b> Alisher Navoiy va Xusrav Dehlaviy.....	239
<b>Baxtiyor FAYZULLOYEV.</b> Navoiy ijodi bo‘yicha noan‘anaviy dars.....	250
<b>Burobiya RAJABOVA.</b> “... Rub‘i maskunida qahramon ul turur”.....	257
<b>Муътабар ШАРИПОВА.</b> Город Герат в эпоху Аlishera Navoi.....	263
<b>Ahmet AKALIN.</b> Devletlerin Yumuşak Güç Enstrümanı Olarak Dil.....	268